

ISHQIY DOSTONLARDA MUQADDIMA VA XOTIMA BOBLAR TADQIQI (ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” HAMDA ABDURAHMON JOMIYNING “YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONLARI MISOLIDA)

Tohirova Fariza Rustamjon qizi,

Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti tayanch doktoranti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-8473-1061>

E-pochta: farizatoxirova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xamsanavislikdagi ishqiy dostonlar tarkibidagi muqaddima va xotima boblarining asar umumiy konsepsiyasida tutgan o‘rni haqida mulohaza yuritiladi. Qiyosiy tadqiq uchun Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” hamda Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostonlari asos qilib olinib, ulardagi muqaddima va xotima boblarining o‘xshash va farqli jihatlari tahlil ostiga olinadi. Umumiy ma’nodagi ushbu boblarining dostonlar mazmun-mohiyati va ularni tadqiq etishdagi ahamiyatini ochib berish ayni maqolaning belgilangan vazifasi sanaladi.

Kalit so‘zlar: Xamsachilik, ishqiy dostonlar, muqaddima boblar, Alisher Navoiy, “Farhod va Shirin”, Abdurahmon Jomiy, “Yusuf va Zulayho”.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль вводных и заключительных глав в общей концепции романтических дастанов (поэм) в традиции хамсанависства. Для сравнительного исследования в качестве основы взяты поэмы Алишера Навои «Фархад и Ширин» и Абдурахмана Джамии «Юсуф и Зулейха»; анализируются сходства и различия в их вводных и заключительных частях. В широком смысле основной задачей статьи является раскрытие значения этих глав в понимании содержания поэм и их важности для литературоведческого анализа.

Ключевые слова: Традиция «Хамсы», любовные дастаны, вступительные главы, Алишер Навои, «Фархад и Ширин», Абдурахман Джамии, «Юсуф и Зулейха».

Abstract. This article discusses the role of introductory and concluding chapters in the overall concept of romantic epics within the Khamsanavislik (Khamsa-writing) tradition. Alisher Navoi's "Farhad and Shirin" and Abdurakhman Jami's "Yusuf and Zulaikha" are used as the basis for a comparative study, analyzing the similarities and differences between their introductions and conclusions. In a broad sense, the primary objective of the article is to reveal the significance of these chapters in understanding the essence of the epics and their importance in literary research.

Keywords: Khamsa-writing (the tradition of creating the "Khamsa" or "Quinary"), romantic dastan (epics), introductory chapters, Alisher Navoi, "Farhad and Shirin", Abdurakhman Jami, "Yusuf and Zulaikha".

Kirish. Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan, Xusrav Dehlaviy esa an’ana tusiga aylantirgan xamsanavislik necha asrdirki, hamon olimlar e’tiborini tortib, tadqiqotlar maydonida peshqadamlik qilib kelmoqda. Nafaqat mumtoz aruz latofati, balki ohoriy misralar, strategik kompozitsiya, qiziqarli sujet va, albatta, yetuk mazmun bu ildamlikni belgilab beruvchi unsurlar ekani ahamiyatga molik. Garchi Nizomiy Ganjaviy avvaldan rejalashtirib ushbu to‘plamni yaratmagan bo‘lsa-da dostonlar birgalikda mushtarak ma’noni ifodalashga yo‘naltirilgandek: barida insoniylik, iymon va go‘zal axloqqa chaqiruv yetakchilik qiladi. Bu borada esa aynan ishqiy dostonlar ma’naviy rang-barangligi va qiziqarliligi bilan ajralib turadi. Ularni to‘g‘ri tahlil etish esa ko‘plab

e'tiborli jihatlarni talab etadi. Asarlar kompozitsiyasidagi muqaddima va xotima boblar ham dostonlarda muhim o'rin egallaydigan ayni shunday jihatlardan biridir. Umuman, xamsanavislikdagi ishqiy dostonlarni tahlil etish didaktik dostonlardan ancha farqlanadi, garchi ikkisinin ham motivi axloq bo'lsa-da didaktik dostonlarda pand-nasihat, ishqiy dostonlarda esa falsafiylik ko'zga yaqqol tashlanadi. Bu, eng avvalo, muqaddimaning o'zidayoq seziladi, garchi barcha muqaddima boblarning strukturasi deyarli o'xshash bo'lsa-da ulardagi ma'no har bir muallifning o'z asari uchun alohida ko'rinish va xususiyat kasb etadi. Ayni mana shu xususiyatlar esa ,o'z navbatida, dostonlarning sujeti va asosiy mohiyatiga ishora qiladi, ya'ni har bir doston avvaldan reja asosida yozilib, bu rejaning umumiy mazmunidan parchalar muqaddimada bayon etilib, o'quvchini doston ruhiyatiga tayyorlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Sharq mumtoz dostonlarining deyarli barchasi uchun muqaddima yozish strukturasi anchayin o'xshash: ularning barchasi avvalo Hamd, Na't, keyinchalik asarning yozilish sababi va muallif urg'u berishni xohlagan masalalar ta'rifi, shuningdek, zamon zayli bilan yozilgan hukmdorlar madhi kabi qismlardan iborat bo'ladi. Xamsanavislikdagi ishqiy dostonlarda ham xuddi shunday struktura kuzatiladi. Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" dostoni muqaddimasi an'anaviy islomiy va adabiy kirish bo'lib, Allohga Hamd (unda tavhid haqida so'z boradi), Na't (Payg'ambar madhi), Me'roj tuni ta'rifi va Hukmdor To'g'ru'l ibn Arslon madhi keltiriladi. Muallif ushbu bobda she'riyat, o'z ijodiy uslubi va so'zga oro berish haqida so'z yuritarkan, maqsadi yuksak badiiylikka yetmoqlik ekanini ta'kidlaydi. U muqaddimada Firdavsiyning "hakim" deya ulug'laydi va shu o'rinda o'z asarini boshqa bundan avvalgi dostonlardan badiiy yuksakligini e'tirof etadi. Muqaddimada asar yozishdan maqsad pok muhabbat va insoniy tuyg'ular tarannumi ekanligi haqida so'z boradi va bu jarayonda u matoni ipakka, kumushni oltinga aylantirganini faxriya yanglig' tilga oladi. Asarning hajman kattaligi, tilining ohoriyligi bunga yaqqol misoldir, asar muqaddimasi ijodkorni nafaqat so'z ustasi, balki donishmand ekanini ham ko'rsatadi. Xusrav Dehlaviyning "Shirin va Xusrav" dostonlar muqaddimasi ham Nizomiy dostoniga nazira o'laroq yozilganiga qaramay, o'zining boy va yetuk badiiy tili, forsiy badiiyat an'alarining go'zal namunasi sifatida undan farqlanibgina qolmay, shoir asar g'oyasiga ham o'z novator mushohadalarini kiritadi, ya'ni u o'z dostonini insoniy tuyg'ular tarannumi etibgina qolmay, balki chin insoniy fazilatlar, sabr va sadoqat, iymon va axloq tushunchalari bilan ham bog'lab, ularni asar muqaddimasidayoq kitobxon ongida shakllantirib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni tadqiq etish bevosita qiyosiy metodni talab etadi. Quyida Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" hamda Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostonlari muqaddima boblari qiyosiy metod yordamida tahlil etilib, umumlashtiriladi:

Dehlaviyning doston mohiyatini o'zgartiruvchi g'oyasi Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida yanada yaqqol bo'y ko'rsatdi. "Farhod va Shirin" muqaddimasi 11 bobdan iborat bo'lib, asosiy voqealar 12-bobdan boshlanadi. 1-2- boblar Alloh Hamdiga bag'ishlangan bo'lib, unda "Qayyumi Mutlaq sifoti" tilga olinadi, shu orada 2-bobda Ishq haqida shoirning go'zal misralari ko'zga tashlanadi:

Chu paydo bo'ldi bu ahhob-u Mahbub,
Jahon bozori ichra tushti oshub.
Bular borini paydo aylagan ishq,
Birin ul birga shaydo aylagan ishq.
Nedin oshiqni o'rtar shayni ma'shuq,
Chu oshiq munda keldi ayni ma'shuq[1.3]

Bu misralar ishqning (ishqi ilohiy) sifati bo'libgina qolmay, ayni damda Farhod ishqiga ishora sifatida ko'rinadi. Misralar mazmuniga chuquqroq kirib borilsa tasavvuf ilmi doirasida ishqning darajotlari va tavhid ishoratini ko'rish mumkin. Ayni shu bobda Farhodning Xitoy (Chin) Mulki farzandi ekani, Suqrot yoniga borishi, Shirin jamolini ko'rib unga oshiq bo'lishi, ishq yo'lida kechirgan savdolari-yu sitamlari hamda vafoti ham qisqacha misralarda keltirib o'tiladi. Ayni shu bobda(Hamddayoq) asarning qisqacha sujeti ko'zga tashlanadi. 3-bob Munojot bo'lib, 4-bob Na't, 5-bob esa Me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlangan. Ushbu boblar ham o'z navbatida badiiy yetukligi bilan ahamiyatga sazovor, ijodkor Me'roj tuni voqealarini ta'riflay turib, 6-bobda Qalam vasfiga o'tadi va ot mavzusidan (Payg'ambar oti) chetga chiqmay qalamni ham Shabdezga (Xusravning oti) qiyoslaydi, so'ng tadrij vositasida uni qushga o'xshatadi. 7-bob Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhiga bag'ishlangan bo'lib, 8-9-boblarda Navoiy Farhodga yanada chuqurroq to'xtalib o'tadi va o'zini ham ishqda Farhoddek bo'lishga undaydi (ya'niki kitobxonni ham). 9-bobda Navoiy o'zidan oldingi Xusrav va Shirin mavzusidagi dostonlarga birma-bir to'xtalib o'tadi va dostonlardagi ayrim o'zi to'g'ri deb bilmagan o'rinlarni tanqid ostiga oladi, u Xusravda chin oshiq siymosi yo'qligini ta'kidlaydi:

Yaqindurkim bu shohi nozrarvard,
Erur dard-u balo oyinidin fard.
Apoda tek bir-ikki doston ham,
Debu farhoddin aytib nishon ham [2.33]

Xusravning ishq yo'lida xomligidan ko'ngli to'lmagan Navoiy Farhod obrazini asariga kiritganlarni ham sanab o'tadi va shu o'rinda asarni yozilish sababi sifatida aynan Farhod ekanini aytib o'tadi. Shu taxlit ilohiy ishq bulog'idan suv ichgan Farhod ideali maydonga keladi. Navoiyning ishq borasidagi fikrlari Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostoni muqaddimasidagi fikrlar bilan anchayin o'xshashligini sezish qiyin emas.

“Yusuf va Zulayho” muqaddimasi ham an’anaviy Hamd va Na’t bilan boshlanadi. Sul-tonlar madhi va Vahdat haqidagi bobdan so‘ng muallifning ishq haqidagi qarashlari 5-bobda keltiriladi:

Dili forig‘ zi dardi ishq dil nest,
Tani bedardi dil juz obu gil nest.
Zi olam ro‘yat ovar dar g‘ami ishq,
Ki boshad olame xush olame ishq [3.]

Ma’nosi: ishq dardidan forig‘ dil yo‘qdir, Yurak dardidan tani bedard biror tuproq yoki gil(inson) yo‘qdir. Dunyo ishq g‘amidan mavjud bo‘ldi, Agar biror xush olam bo‘lsa, bu ishq olamidir. Bu misralar Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni muqaddimasida ta’kidlangan ishq haqidagi misralarga monandir.

Asarning 6-bobida esa muallif asarning yoizilish sababi va nega Xusrav va Shirin mojarolariga emas, balki qissalarning eng go‘zali bo‘lmish Yusuf qissasiga yuzlangani sababini ochiqlyadi. Jomiy mavzuning eskirganini emas, balki afsonaxonlikni xush ko‘rmasligini asosiy omil sifatida ko‘rsatadi va Qur’onda keltirilgan ishq qissasini o‘z falsafiy qarashlari ila boyitadi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytib o‘tish mumkinki, xamsalar tarkibidagi ishqiy dostonlar muqaddimasi butun doston sujeti haqida qisqacha annotatsiya sifatida xizmat qiladi. Mualliflar muqaddimada asar sujeti va uning mazmun mundarijasi haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita to‘xtalib o‘tadilar. Aynan ishq mavzusida esa garchi Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” hamda Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostonlarfi bir-biriga mavzu jihatdan aloqador bo‘lmasa ham, mazmun hamda ishq motivi, buy yo‘ldagi dard, oshiq obrazlari orqali juda o‘xshashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmoni Jomi. OSOR. Jildi chorum. Yusuf va Zulayho. Dushanbe, 1988.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. www.Ziyouz.com kutubxonasi.
3. Nizomi Ganjaviy. Kulliyot. 5-jild. Xusrav va Shirin. 1984
4. www.natlib.com
5. www.researchgate.com